# FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI
***(2020-yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma`lumot)***

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2020-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1462,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 44,5 mln. AQSh dollariga ko‘paydi yoki 103,1 %ga teng bo‘ldi.



*Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 555,3 mln. AQSh dollariga (3,3 % ga kamaydi) va import hajmi 907,0 mln. AQSh dollariga (o‘sish sur’ati 107,5 % ) yetdi. Hisobot davrida – 351,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




**FARG‘ONA VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘IGAN DAVLATLAR**
***(2020 yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)***

| Top-8 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 364,5 | 73,6 | 290,9 | 24,9 |
| Rossiya Federatsiyasi | 317,6 | 148,5 | 169,1 | 21,7 |
| Qozog‘iston | 227,0 | 30,3 | 196,7 | 15,5 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 159,8 | 124,4 | 35,4 | 10,9 |
| Turkiya | 71,3 | 37,2 | 34,1 | 4,9 |
| Tojikiston | 40,3 | 21,0 | 19,3 | 2,8 |
| Turkmaniston | 36,5 | 4,8 | 31,8 | 2,5 |

| Top-8 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Koreya Respublikasi | 30,6 | 8,0 | 22,6 | 2,1 |

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.




**FARG‘ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI OYLIK DINAMIKASI**
***(mln. AQSH dollari)***



*Farg‘ona viloyatning, jahonning 77 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (24,9 %), Rossiya Federatsiyasida (21,7 %), Qozog‘istonda (15,5 %), Qirg‘iz Respublikasida (10,9 %), Turkiyada (4,9 %), Tukmanistonda (2,5 %), Tojikistonda (2,8 %) va Koreya Respublikasida (2,1 %) qayd etilgan.*

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

*Xususan, qo‘shni davlatlar Qozog‘iston va Qirg‘iz Respublikalari bilan TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qirg‘iz Resp., Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.*

*Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.*

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, XXR (364,5 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (317,6 mln. AQSh dollari), Qozog‘iston (227,0 mln. AQSh dollari), Qirg‘iz Resp. (159,8 mln. AQSh dollari), Turkiya (71,3 mln. AQSh dollari) va Tojikiston (40,3 mln. AQSh dollari) shular

jumlasidandir. Qolgan 13 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)***

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **330,4** | **410,0** | **364,5** |
| Eksport | 112,9 | 104,5 | 73,6 |
| Import | 217,5 | 305,5 | 290,9 |
| Saldo | -104,6 | -200,9 | -217,3 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **350,2** | **283,6** | **317,6** |
| Eksport | 129,7 | 132,7 | 148,5 |
| Import | 220,6 | 150,9 | 169,1 |
| Saldo | -90,9 | -18,2 | -20,6 |
| **Qozog‘iston** | **273,9** | **160,0** | **227,0** |
| Eksport | 66,8 | 48,4 | 30,3 |
| Import | 207,2 | 111,6 | 196,7 |
| Saldo | -140,4 | -63,2 | -166,4 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **71,3** | **153,1** | **159,8** |
| Eksport | 34,7 | 113,4 | 124,4 |
| Import | 36,6 | 39,7 | 35,4 |
| Saldo | -1,9 | 73,7 | 89,0 |
| **Turkiya** | **54,6** | **102,5** | **71,2** |
| Eksport | 31,7 | 59,6 | 37,2 |
| Import | 22,9 | 42,9 | 34,1 |
| Saldo | 8,8 | 16,7 | 3,1 |
| **Tojikiston** | **21,3** | **38,1** | **40,3** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Eksport | 9,9 | 15,2 | 21,0 |
| Import | 11,4 | 22,9 | 19,3 |
| Saldo | -1,5 | -7,7 | 1,7 |
| **Turkmaniston** | **9,9** | **8,5** | **36,5** |
| Eksport | 0,5 | 0,8 | 4,8 |
| Import | 9,4 | 7,7 | 31,8 |
| Saldo | -8,9 | -6,9 | -27,0 |
| **Koreya Respublikasi** | **30,4** | **33,5** | **30,6** |
| Eksport | 5,3 | 5,1 | 8,0 |
| Import | 25,2 | 28,4 | 22,6 |
| Saldo | -19,9 | - 23,3 | -14,6 |
| **Polsha** | **21,5** | **22,9** | **24,1** |
| Eksport | 19,5 | 16,8 | 22,3 |
| Import | 1,9 | 6,1 | 1,9 |
| Saldo | 17,6 | 10,7 | 20,4 |
| **Germaniya** | **30,6** | **26,3** | **20,7** |
| Eksport | 1,9 | 1,1 | 1,6 |
| Import | 28,7 | 25,3 | 19,1 |
| Saldo | -26,8 | -24,2 | -17,5 |
| **Afg‘oniston** | **4,0** | **15,5** | **16,5** |
| Eksport | 4,0 | 15,5 | 16,5 |
| Import | 0 | 0 | 0 |
| Saldo | 4,0 | 15,5 | 16,5 |
| **Niderlandiya** | **3,8** | **2,1** | **15,2** |
| Eksport | 0,1 | - | - |
| Import | 3,8 | 2,1 | 15,2 |
| Saldo | -3,7 | -2,1 | -15,2 |
| **Misr** | **2,8** | **12,5** | **10,5** |
| Eksport | 2,8 | 12,0 | 10,5 |
| Import | | 0,5 | 0,01 |
| Saldo | 2,8 | 11,5 | 10,5 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bangladesh** | **18,3** | **11,7** | **10,3** |
| Eksport | 18,3 | 11,7 | 10,3 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 18,3 | 11,7 | 10,3 |
| **Hindiston** | **12,8** | **4,0** | **9,8** |
| Eksport | 0,1 | 0,4 | 1,7 |
| Import | 12,7 | 3,6 | 8,1 |
| Saldo | -12,6 | - 3,2 | - 6,4 |
| **Italiya** | **6,5** | **5,1** | **9,3** |
| Eksport | 0,5 | 0,7 | 0,4 |
| Import | 6,0 | 4,4 | 8,9 |
| Saldo | -5,5 | -3,7 | - 8,5 |
| **Ukraina** | **10,6** | **12,5** | **7,5** |
| Eksport | 4,6 | 8,1 | 5,0 |
| Import | 6,0 | 4,4 | 2,5 |
| Saldo | -1,4 | 3,7 | 2,5 |
| **Litva** | **7,0** | **10,7** | **7,5** |
| Eksport | 1,9 | 0,7 | 1,4 |
| Import | 5,0 | 10,0 | 6,0 |
| Saldo | -3,1 | -9,3 | -4,6 |
| **Belarus** | **6,1** | **5,1** | **6,7** |
| Eksport | 3,3 | 2,1 | 4,1 |
| Import | 2,8 | 3,0 | 2,6 |
| Saldo | 0,5 | -0,9 | 1,5 |
| **Singapur** | **1,7** | **1,8** | **5,6** |
| Eksport | | | 5,6 |
| Import | 1,7 | 1,8 | - |
| Saldo | -1,7 | -1,8 | 5,6 |

## FARG‘ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLAR DINAMIKASI
*(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 54,6 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga nisbatan 13,7 %ga oshgan.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 2019-yilning mos davriga nisbatan kamaydi (-15,6 %ga) va jami TSA dagi ulushi 45,4 % ni tashkil etdi.

## FARG‘ONA VILOYATNING EKSPORTI
***(2020-yil yanvar- dekabr)***

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 653 tani tashkil etib, ular tomonidan 555,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 3,3 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,2 %ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (45,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (36,6 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (6,8 %) hamda kimyoviy vositalar (2,3 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI**
***(2020 yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)***






## FARG‘ONA VILOYATINING EKSPORTI OYLIK DINAMIKASI
*(mln. AQSH dollari)*




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2020-yilning yanvar-dekabr eksport qilingan tovarlar va xizmatlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 mln. AQSh dollariga kamaydi.



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2020 yil yanvar-dekabr)*

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlari | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | O‘tgan yilga nisbatan,% da | Umumiy hajmga nisbatan, %da | Jami | O‘tgan yilga nisbatan,% da | Umumiy hajmga nisbatan, %da | Jami | O‘tgan yilga nisbatan,% da | Umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami eksport** | 555,3 | 96,7 | 100 | 340,1 | 105,7 | 100 | 215,2 | 85,1 | 100 |

shu jumladan:

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 203,3 | 89,3 | 36,6 | 185,0 | 92,2 | 54,4 | 18,2 | 67,4 | 8,5 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,5 | 3,5 m | 0,1 | 0,1 | 2,3 p | 0,0 | 0,4 | 4,3 m | 0,2 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 37,6 | 135,3 | 6,8 | 24,8 | 137,9 | 7,3 | 12,8 | 130,6 | 5,9 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 6,6 | 30,8 | 1,2 | 5,3 | 47,9 | 1,6 | 1,3 | 12,5 | 0,6 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,6 | 197,7 | 0,1 | 0,5 | 181,3 | 0,2 | 0,01 | 100 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 12,6 | 3,6 m | 2,3 | 11,7 | 3,4 m | 3,5 | 0,9 | 79 m | 0,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 252,4 | 93,0 | 45,5 | 76,4 | 114,0 | 22,5 | 176,0 | 86,2 | 81,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 1,3 | 167,5 | 0,2 | 1,1 | 186,5 | 0,3 | 0,1 | 90,2 | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 31,6 | 2,7 m | 5,6 | 30,9 | 2,7 p | 9,1 | 0,7 | 123,4 | 0,3 |
| Xizmatlar | 8,9 | 93,4 | 1,6 | 4,2 | 46,1 | 1,2 | 4,7 | 10 m | 2,2 |

Boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, keyingi o‘rinlarda eksport hajmi bo‘yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallarga to‘g‘ri kelmoqda.

2020-yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-dekabrga nisbatan, mashina va asbob-uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlaridan tashqari barcha tovar guruhlarida pasayish kuzatildi.



## EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
*(yanvar- dekabr,% da)*

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **shu jumladan:** | | | |
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | 28,6 | 39,6 | 36,6 |
| **Ichimliklar va tamaki** | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | 3,4 | 4,8 | 6,8 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | 5,8 | 3,7 | 1,2 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | 0,0 | 0,0 | 0,1 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | 0,4 | 0,6 | 2,3 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | 57,7 | 47,2 | 45,5 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| **Turli xil tayyor va boshqa buyumlar** | 2,0 | 2,1 | 5,7 |
| **Xizmatlar** | 1,9 | 1,7 | 1,6 |



## XSST BO‘ LIMI BO ‘YICHA MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI
*(2020 yil yanvar-dekabr)*

| XSST bo‘limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2019-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 185,7 | 91,3 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 14,7 | 197,8 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 0,4 | 51,5 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 2,1 | 13,5 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 0,1 | 68,4 m |

| | | |
|---|---|---|
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 0,4 | 3,3 m |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari | 0,01 | 12, m |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 11,4 | 127,9 |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 16,6 | 170,5 |
| Metall rudalari va metall parchalari | 3,1 | 114,1 |
| Qog‘oz massasi va makulatura | 2,9 | 93,9 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 3,0 | 111,0 |
| **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 6,6 | 30,5 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog`lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 0,6 | 197,7 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,3 | 21,0 m |
| Organik kimyo moddalari | 0,3 | 187,4 |
| O‘g‘itlar | 10,1 | 3,5 m |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 1 ,1 | 100 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 238,3 | 90,0 |
| Metalldan tayyorlangan buyumlar | 2,9 | 14,8 m |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 9,6 | 191,7 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 0,8 | 171,9 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari | 0,2 | 203,7 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 18,1 | 303,7 |
| Poyabzal | 5,5 | 181,6 |
| Har xil tayyor buyumlar | 7,7 | 262,6 |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 7,1 | 101,6 |
| Safarlar (turizm) | 0,3 | 37,0 |
| Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari | 0,2 | 123,5 |
| Moliyaviy xizmatlari | 1,4 | 80,4 |




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLAR**
***(2020 –yil yanvar-dekabr)***

So‘nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-dekabridan 51,8 %dan 2020-yil yanvar-dekabriga nisbatan 61,2 %ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 48,2 % dan 38,8 %ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-dekabriga oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (26,7 %), Q‘rg‘iz Respublikasi (22,4 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,3 %), Qozog‘iston (5,5 %), Turkiya (6,7 %), Polsha (4,0 %), Afg‘oniston (2,0 %), Tojikiston (3,8 %) va Misr ( 1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,3 %ni tashkil etmoqda.




## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
### *(2020-yil yanvar-dekabr,% da)*

Rossiya Federatsiyasi



26,7 %

Q'rg'iz Respyblikasi



22,4 %

Xitoy Xalq Respublikasi



13,3 %

Turkiya



6,7 %



Q'ozog'iston

5,5 %



Polsha

4,0 %



Tojikiston

3,8 %



Afg'aniston

3,0 %

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo‘lgan Xitoy Xalq Respublika ning ikki pog‘onaga tushishi hisobiga, Qirg‘iz Respublikasi eksportdagi ulushi bo‘yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 79 davlatdan 64 davlatga kamaydi.

## FARG‘ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI *(yanvar- dekabr)*

| Davlatlar | Mln.AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 132,7 | 148,5 | 102,3 | 111,9 | 1 | 1 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 113,4 | 124,4 | 326,5 | 109,7 | 2 | 2 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 104,5 | 73,6 | 92,6 | 70,4 | 3 | 3 |
| Turkiya | 59,6 | 37,2 | 188,3 | 62,3 | 4 | 4 |
| Qozog‘iston | 48,4 | 30,3 | 72,5 | 62,6 | 5 | 5 |
| Polsha | 16,8 | 22,3 | 86,0 | 132,4 | 6 | 6 |
| **Tojikiston** | 15,2 | 21,0 | 153,2 | 137,9 | 8 | 7 |
| Afg‘oniston | 15,5 | 16,5 | 382,6 | 106,6 | 7 | 8 |
| Misr | 12,0 | 10,5 | 434,3 | 86,9 | 9 | 9 |
| Bangladesh | 11,7 | 10,3 | 64,3 | 87,8 | 10 | 10 |
| Koreya Respublikasi | 5,1 | 8,0 | 96,9 | 157,6 | 13 | 11 |
| Singapur | 0,0 | 5,5 | 7,6 | 171,8 m | 20 | 12 |
| Ukraina | 8,1 | 5,0 | 175,7 | 61,5 | 11 | 13 |
| Turkmaniston | 0,8 | 4,8 | 166,4 | 573,2 | 19 | 14 |
| Pakistan | 1,3 | 4,6 | 179,3 | 351,6 | 18 | 15 |
| Belarus | 2,0 | 4,1 | 60,9 | 200,4 | 14 | 16 |
| Vyetnam | 6,2 | 2,7 | 113,4 | 44,3 | 12 | 17 |
| Portugaliya | 1,7 | 2,4 | 99,7 | 137,0 | 17 | 18 |
| Belgiya | 3,0 | 2,3 | 117,5 | 75,5 | 15 | 19 |
| Marokash | 3,6 | 1,9 | 225,2 | 52,7 | 14 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari, yengil sanoat va shunga o‘xshash materiallar, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
*(2020 –yil yanvar-dekabr , ulushi, %da)*

Xizmatlar eksporti hajmi 8,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 %ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,6 %ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (80,1 %) va moliyaviy (15,3 %) xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (1,8 %), safarlar bilan bog‘liq xizmatlar (2,9 %) ni tashkil etgan.






## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 187,4 mln. dollar qiymatli 204,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 16,4 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 8,0 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 30,1 mln. AQSh dollariga teng 57,4 ming tonna sabzavot, shuningdek 112,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 102,0 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 33,7 %ni tashkil etdi.




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (45,6 %), Qirg‘iz Respublikasi (38,3 %), va Qozog‘iston (13,3 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI**
***(yanvar- dekabr)***

| Davlatlar | 2019-yil | | | 2020-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 88,8 | 58,8 | 28,9 | 103,1 | 81,4 | 43,4 |

| Davlatlar | 2019-yil | | | 2020-yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi*, % da |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | 54,6 | 91,5 | 44,9 | 53,1 | 77,7 | 41,4 |
| **Qozog‘iston** | 77,5 | 41,2 | 20,7 | 40,8 | 22,3 | 11,9 |
| **Afg‘oniston** | 1,7 | 1,4 | 0,7 | 0,7 | 0,3 | 0,2 |
| **Belarus** | 0,4 | 0,2 | 0,1 | 0,5 | 0,4 | 0,2 |
| **XXR** | 0,5 | 1,4 | 0,7 | 0,2 | 0,3 | 0,2 |
| **Pokiston** | 1,9 | 1,3 | 0,6 | 0,3 | 1,1 | 0,6 |
| **Tojikiston** | 0,6 | 0,6 | 0,3 | 0,2 | 0,1 | 0,1 |
| **Ukraina** | 8,4 | 3,7 | 1,8 | 3,5 | 1,7 | 0,9 |
| **Turkiya** | 0,4 | 0,06 | 0,0 | 0,04 | 0,03 | 0,0 |
| **Koreya Respublikasi** | 0,7 | 0,8 | 0,4 | 0,6 | 1,2 | 0,7 |
| **Litva** | 0,06 | 0,03 | 0,0 | 0,3 | 0,1 | 0,1 |
| **Germaniya** | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,4 | 0,2 | 0,1 |
| **BAA** | 0,06 | 0,1 | 0,1 | 0,07 | 0,2 | 0,1 |
| **Turkmaniston** | 0,4 | 0,06 | 0,0 | 0,04 | 0,03 | 0,0 |
| **Mongoliya** | 0 | 0 | 0 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| **Boshqalar** | 2,2 | 2,7 | 1,3 | 0,5 | 0,4 | 0,2 |

*-*qiymat ifodasidan*



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (72,5 %), paxta gazlamalari (9,1 %) hamda tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (6,1 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 188 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 46 ta davlatiga eksport qilindi.

*To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining kamayishi bevosita paxta xom-ashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 262,6 mln. AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 47,3 %ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 3,9 %ga kamaydi.*



## TO‘QIMA CHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI
***(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)***

| Tovar nomi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Paxtadan yigirilgan ip** | 237,8 | 230,0 | 190,3 |
| **Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari** | 5,0 | 5,9 | 18,0 |
| **Gilamlar** | 0,06 | 0,1 | 0,1 |
| **Naqshli mato** | 1,9 | 4,3 | 5,7 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari** | 3,6 | 3,4 | 4,1 |
| **Paxtadan gazlamalar** | 23,2 | 19,3 | 24,0 |
| **Ipak va ipak mahsulotlari** | 7,1 | 7,0 | 15,4 |
| **Paxta mahsulotlari** | 2,4 | 2,7 | 4,1 |
| **Boshqalar** | 0,8 | 0,7 | 0,8 |

Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlari naijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (71,3 mln. AQSh dollari, ulushi 27,1 %), Rossiya Federatsiyasi (55,6 mln. AQSh dollari, uluhi 21,2 % ) va Turkiya ( 34,1 mln.AQSh dollari, ulushi 13,0 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



**DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI**
***(yanvar- dekabr, mln AQSH dollari)***

| Davlatlar | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **XXR** | 111,1 | 101,8 | 71,3 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 65,7 | 52,9 | 55,6 |
| **Turkiya** | 29,4 | 45,1 | 34,1 |
| **Polsha** | 15,5 | 13,9 | 21,8 |
| **Misr** | 2,8 | 12,0 | 10,5 |
| **Bangladesh** | 18,2 | 11,7 | 10,3 |
| **Tojikiston** | 3,0 | 4,2 | 9,1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Qirg‘iz Respublikasi** | 2,3 | 1,9 | 8,4 |
| **Singapur** | | | 5,5 |
| **Koreya Respublikasi** | 5,0 | 4,1 | 4,6 |
| **Pokiston** | 0,02 | 0,04 | 3,4 |
| **Ukraina** | 2,6 | 3,7 | 3,0 |
| **Portugaliya** | 1,7 | 1,7 | 2,3 |
| **Belgiya** | 1,6 | 2,2 | 2,3 |
| **Belarus** | 3,2 | 1,8 | 2,1 |
| **Marokash** | 1,6 | 3,6 | 1,9 |
| **Chehiya** | 1,9 | 1,3 | 1,8 |
| **Peru** | | 0,09 | 1,7 |

## ***FARG‘ONA VILOYATINING IMPORTI***
## ***(2020-yil yanvar-dekabr)***

2020-yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi 907, 0 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 107,5 %ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashina va asbob uskunalar (30,3 %), mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (21,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,9 %) hamda kimyoviy vositalar (8,4 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




### XSST BO‘ LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
### *(2020-yil, yanvar-dekabr, ulushi,% da)*




## FARG‘ONA VILOYATINING IMPORTI OYLIK DINAMIKASI (mln. AQSH dollari)




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2020-yilning yanvar-dekabr import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos

davriga nisbatan 62,7 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 895,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 12,0 mln. AQSh dollariga yetdi.




**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI**
***(2020- yil yanvar-dekabr)***

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlari | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | O‘tgan yilga nisbatan,% da | Umumiy hajmga nisbatan, %da | Jami | O‘tgan yilga nisbatan,% da | Umumiy hajmga nisbatan, %da | Jami | O‘tgan yilga nisbatan,% da | Umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami import** | **907,** | **107,5** | **100** | **459,0** | **134,8** | **100** | **448,1** | **89,1** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 107,8 | 141,7 | 11,9 | 84,0 | 151,0 | 18,3 | 23,8 | 116,4 | 5,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,2 | 263,3 | 0,0 | 0,1 | 120,4 | 0,0 | 0,1 | 26 p | 0,02 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 41,8 | 112,6 | 4,6 | 39,8 | 113,4 | 8,7 | 2,0 | 97,1 | 0,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 193,6 | 250,1 | 21,3 | 193,0 | 252,2 | 42,1 | 0,6 | 69,9 | 0,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 18,1 | 199,1 | 2,0 | 18,1 | 199,2 | 3,9 | 0,0 | 126,3 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 75,9 | 107,8 | 8,4 | 19,8 | 96,3 | 4,3 | 56,2 | 112,5 | 12,5 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 159,2 | 76,5 | 17,5 | 92,0 | 71,2 | 20,0 | 67,2 | 85,3 | 15,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 274,6 | 83,5 | 30,3 | 9,3 | 93,4 | 2,0 | 256,3 | 83,2 | 59,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 23,8 | 95,1 | 2,6 | 2,8 | 90,1 | 0,6 | 21,1 | 95,9 | 4,7 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Xizmatlar | 12,0 | 108,3 | 1,3 | 0,1 | 7,1 | 0,0 | 11,9 | 120,7 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, mineral yoqilg‘i yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (42,1 %), sanoat mahsulotlari (20,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,3 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (59,2 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (12,5 %), hissasiga to‘g‘ri keladi.




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar- dekabr, ulushi, % da)***

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 6,6 %dan 11,9 %ga ko‘paydi, mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar 32,5 % dan 21,3 %ga kamaydi.

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| **shu jumladan:** | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 6,6 | 9,0 | 11,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 3,4 | 4,4 | 4,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog`lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 32,5 | 9,2 | 21,3 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,2 | 1,1 | 2,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 6,0 | 8,4 | 8,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 22,8 | 24,7 | 17,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 24,0 | 39,0 | 30,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,9 | 3,0 | 2,6 |

| XSST tarkibi | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Xizmatlar | 0,7 | 1,3 | 1,3 |




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLAR DINAMIKASI**
*(2020 –yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari,ulushi, % da)*




Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida (32,1 %) ulushi bilani Qozog‘iston Respublikasini (21,7%) hamda Rossiya Federatsiyasini (19,5 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o‘rinni egalladi.



**TOVAR VA HIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR**
***(yanvar- dekabr)***

| Davlatlar | Mln. AQSH dollari | O‘sish sur’ati, % da | O‘rni |
|---|---|---|---|

| | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | 305,4 | 290,9 | 140,5 | 95,2 | 1 | 1 |
| **Qozog‘iston** | 111,6 | 196,7 | 53,8 | 176,3 | 3 | 2 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | 150,9 | 169,1 | 68,4 | 112,0 | 2 | 3 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | 39,7 | 35,4 | 108,6 | 89,0 | 5 | 4 |
| **Turkiya** | 42,9 | 34,1 | 187,0 | 79,4 | 4 | 5 |
| **Turkmaniston** | 7,7 | 31,8 | 81,8 | 414,2 | 11 | 6 |
| **Respublika Koreya** | 28,4 | 22,6 | 112,9 | 79,6 | 6 | 7 |
| **Tojikiston** | 23,0 | 19,3 | 201,6 | 84,4 | 8 | 8 |
| **Germaniya** | 25,3 | 19,1 | 88,8 | 75,5 | 7 | 9 |
| **Niderlandiya** | 2,1 | 15,2 | 55,5 | 725,4 | 18 | 10 |
| **Italiya** | 4,4 | 8,9 | 72,5 | 202,8 | 12 | 11 |
| **Hindiston** | 3,6 | 8,1 | 28,0 | 227,5 | 15 | 12 |
| **Litva** | 10,0 | 6,0 | 197,6 | 60,6 | 10 | 13 |
| **Yaponiya** | 16,0 | 4,4 | 264,5 | 27,4 | 9 | 14 |
| **Avstriya** | 1,3 | 3,7 | 365,1 | 274,6 | 19 | 15 |
| **Shveysariya** | 3,1 | 3,1 | 38,4 | 101,3 | 16 | 16 |
| **AQSh** | 4,0 | 3,1 | 47 p | 77,5 | 14 | 17 |
| **Eron** | 4,3 | 3,0 | 142,2 | 67,8 | 13 | 18 |
| **Vyetnam** | 0,2 | 2,6 | 71,5 | 16 p | 20 | 19 |
| **Belarus** | 3,0 | 2,6 | 109,1 | 86,1 | 17 | 20 |

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo‘yicha eng yuqori beshtalikda o‘zgarish kuzatilmadi.

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ILUSHI
*(2020-yil yanvar- dekabr)*

2020-yil yanvar- dekabr oylari yakuni bo‘yicha Farg‘ona viloyati tomonidan 66 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qirg‘iz Respublikasi, Koreya va Tukmaniston) jami importning 86,1 %ini tashkil qiladi, bu 780,5 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Qozog‘iston, Koreya, Rossiya, tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
***(2020-yanvar-dekabr, ulushi, % da)***

2020-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 12,0 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,3 %ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 8,3 %ga ko‘paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi savdo va tehnik muhandislik xizmati (19,6 %) va boshqa xizmatlaridan (79,3 %) iborat bo‘ldi.






## QURILISH MATERIALLARI IMPORTI

2020-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan 106,4 mln. AQSh dollari miqdorida qurilish materiallari importi amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy import

hajmining 11,7 %ini tashkil qildi.

Import qilingan qurilish materiallari tarkibida yog‘och va yog‘och mahsulotlari (24,1 %), shisha va shisha buyumlar (5,5 %), sement (28,5 %), hamda asbest (24,8 %) asosiy ulushni egallagan.

2020-yil yanvar- dekabr yakunlariga ko‘ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan pasayish (14,9 %) qayd etildi.




Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko‘lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.



**QURILISH MATERIALLARI IMPORTI DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)***

| Qurilish materiallari | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. |
|---|---|---|---|
| Yog‘och va yog‘och mahsulotlari | 32,5 | 50,7 | 25,6 |
| Shisha va shisha buyumlar | 6,4 | 5,5 | 5,9 |
| Sement | 35,3 | 40,8 | 30,4 |
| Asbest | 11,2 | 5,6 | 26,4 |

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

**va savdo statistikasi bo‘limi.**
**Tel.:(73)-249-87-18**